



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **224 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **4,3%** ni tashkil topdi.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **338 taga oshgan**.

2018 yil 1 aprel holatiga ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14614 taga etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 318 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26.8 % kamaygan hamda ularning soni 66 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 298 ta (2,1 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13972 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (24,6 %), Urganch tumani (10,3 %), Xiva (10,2%) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	14614	100,0	13972	100,0
Urganch sh.	3662	25,1	3428	24,6
Xiva sh.	1234	8,4	1213	8,7
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	731	5,0	714	5,1
Gurlan	880	6,0	828	5,9
Qo'shko'pir	820	5,6	796	5,7
Urganch	1484	10,2	1442	10,3
Xazorasp	990	6,8	961	6,9
Xonqa	1073	7,3	1037	7,4
Xiva	1493	10,2	1427	10,2
Shovot	713	4,9	662	4,7
Yangiariq	976	6,7	931	6,7
Yangibozor	558	3,8	533	3,8

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,6 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda, va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,5 f.p. ko'paygan.


■ Faoliyat ko'rsatayotganlar
 ■ Faoliyat ko'rsatmayotganlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,8 % savdoda, 15,7 % sanoatda, 10,9 % qurilishda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa hamda 28,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-mart holatiga 519 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,4 % ga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (131 ta), Urganch tumanida (83 ta), Yangiariq tumani (47 ta) va Xiva shahri (45 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shovot (24 ta), Qoshko'pir (21 ta) hamda Bog'ot (19 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (151 ta), sanoatda (98 ta), qurilishda (68 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (43 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (2 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (10 ta) va yashash va ovqatlanish xizmatlarida (19 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,9 f.p), sanoatda (-0,1 f.p) hamda boshqa faoliyat turlarida (-0,3 f.p dan) kamayganligi buning natijasida qurilishda (+0,7 f.p), savdoda (+0,2 f.p), tashish va saqlashda (+0,2 f.p.) , qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,1 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.dan), axborot va aloqada (+0,0 f.p.dan), ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2018 y.	01.03.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,1	-0,9
Sanoat	15,7	15,8	-0,1
Qurilish	10,9	10,2	0,7
Tashish va saqlash	3,9	3,7	0,2
Savdo	23,8	23,6	0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,7	7,6	0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,4	5,3	0,1
Axborot va aloqa	1,6	1,6	0,0
Boshqa turlari	28,9	29,1	-0,2

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 Aprel holatiga 11214 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3994 ta, oilaviy korxonalar – 935 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5975 ta va boshqalar 310 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 52 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga yoki 20,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 47 tasi qo'shma korxonalar, 5 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Urganch shahar 12 ta (23,1 %i), Shovot tumani 11 ta (21,1 %) va Xiva shahar 7 ta (13,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Gurlan tumani 1 ta (1,9 %), Xazorasp tumani 1 ta (1,9 %), Xonqa tumani 1 ta (1,9 %) va Yangibozor tumani 1 ta (1,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 33 ta (63,6 %), savdoda 8 ta (15,4 %), qurilishda 4 ta (7,7 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 1 ta (1,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2 ta (3,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta (3,8 %) va boshqa turlarida 2 ta (3,8 %) tashkil qilgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqada umuman yoqligi ma'lum boldi. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11138 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 3,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2794 tasi (25,0 %) Urganch shahriga, 1246 tasi (11,2 %) Xiva tumani, 1194 tasi (10,7 foizi) Urganch tumani hamda 1111 tasi (10,0 foizi) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11138 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3304 tasi (29,7 %) – savdoda, 2164 tasi (19,4 %) - sanoatda, 1509 tasi (13,5 %) - qurilishda, 1053 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 747 tasi (6,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 539 tasi (4,8%) - tashish va saqlashda, 231 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 203 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1388 tasi (12,5%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart oylarida 450 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (122 ta), Urganch tumani (69 ta), Xonqa tumani (37 ta) va Yangiariq tumanida (35 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (17 ta), Bog'ot (19 ta), Qo'shko'pir (20 ta), Xiva (21 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (151 ta), sanoatda (98 ta), qurilishda (68 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (42 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (10 ta), axborot va aloqada (2 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 aprel holatiga 969 tani tashkil etib, ulardan 935 tasi yoki 96,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 32,8 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,2 % yoki 255 tasi sanoat, 25,5 % yoki 238 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,4 % yoki 191 tasi savdo, 11,6 % yoki 108 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,0 % yoki 19 tasi qurilish, 1,5 % yoki 14 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 9 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,2 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, hamda 10,6 % yoki 99 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan